SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

YOQUBOVA SAFIYA XAMDAMOVNA

ISMOILXON FAQIRIY ADABIY MEROSINING G‘OYAVIY-BADIIY TAHLILI

10.00.02 – O‘zbek mumtoz adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 821.512.133.09-1

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

Yoqubova Safiya Xamdamovna
Ismoilxon Faqiriy adabiy merosining g‘oyaviy-badiiy tahlili 3

Якубова Сафия Хамдамовна
Идейно-художественный анализ литературного наследия Исмоилхона Факири 27

Yakubova Safiya Khamdamovna
Ideological and Artistic Analysis of Ismoilxon Faqiriy’s Literary Heritage 61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 66

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

YOQUBOVA SAFIYA XAMDAMOVNA

ISMOILXON FAQIRIY ADABIY MEROSINING G‘OYAVIY-BADIIY TAHLILI

10.00.02 – O‘zbek mumtoz adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.1.PhD/Fil5507 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Muxitdinova Badea Muslihiddinovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Xo‘jaqulov Sirojiddin Xolmaxmatovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Nuriddinov Shahobiddin Boboyorovich filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 raqamli Ilmiy kengashning “____” _____ 2026-yil soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2-ARM binosi, 3-qavat Faollar zali.Tel.: +993(66) 239-18-92; +faks: +998(66)239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15-uy. Tel.: +99366 239-11-40, (0366)239-18-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U.Qobilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.A.Razzoqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.R.Boboxonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodini yangicha ilmiy-metodologik mezonlar asosida nazariy jihatdan tadqiq etishga e'tibor tobora kuchaymoqda. Bunda milliy va umuminsoniy badiiy tafakkur taraqqiyotini o‘rganish, mumtoz matnlarning g‘oyaviy qatlamlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish hamda ularning madaniyatlararo aloqalardagi o‘rnini belgilash asosiy yo‘nalishlardan sanaladi. Markaziy Osiyo adabiy muhitida yaratilgan boy merosning barchasi bir xil darajada ilmiy muomalaga tortilgan emas, xususan, an'anaviy poetika doirasida ijod qilgan ayrim so‘z san'atkorlarining merosi hozirga qadar umumiy-tavsifiy qaydlar doirasida qolib kelmoqda, ularning adabiy-estetik qarashlari va lirik devonlarining matniy xususiyatlari yaxlit baholanmagan. Ijodi maxsus o‘rganilmagan shoirlar merosini birlamchi manbalar asosida ilmiy muomalaga kiritish bugungi adabiyot ilmining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz adabiy merosni zamonaviy gumanitar fanlar yutuqlari asosida talqin qilish, alohida ijodkorlarning badiiy merosini tarixiy-adabiy, manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan baholashga ehtiyoj ortib bormoqda. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida ijod qilgan ma'rifatparvar shoirlar merosini qo‘lyozma va nashr manbalari asosida ilmiy muomalaga kiritish, ularning janrlar olami, badiiy tafakkuri va g‘oyaviy qarashlarini kompleks tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar izchil davom etmoqda. Shu nuqtayi nazardan mazkur davrda yashab ijod qilgan Ismoilxon Faqiriyning adabiy merosini g‘oyaviy-badiiy jihatlardan tizimli tadqiq etish dolzarbdir. Shoir ijodida axloqiy-falsafiy qarashlar, tasavvufiy motivlar, ma'rifiy g‘oyalar va ijtimoiy-estetik tamoyillar mumtoz an'analar bilan uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizda globallashuv va madaniy integratsiya jarayonlari sharoitida so‘nggi yillarda milliy adabiy merosni chuqur, tizimli va konseptual asosda o‘rganish, mumtoz adabiyot namoyandalarining ijodiy merosini ilmiy muomalaga kiritish, ularning g‘oyaviy-badiiy va poetik xususiyatlarini tadqiq etish borasida muntazam ravishda ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga maqsad, eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘yilgani boshqa soha vakillari kabi adabiyotshunoslarni ham aniq maqsadlar asosida ishlashini talab qiladi"[1]. O‘zbek adabiyotshunosligida ijodi maxsus o‘rganilmagan shoirlar adabiy merosining janriy, mavzuiy va badiiy-estetik xususiyatlarini o‘rganish muhim masalalardan hisoblanadi. Jumladan, Ismoilxon Faqiriyning adabiy merosi, devoni, qo‘lyozma va nashr manbalari kompleks ravishda tadqiq etilmagan, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetik individualligi hamda o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni asoslanmagan. Shu bois Faqiriy ijodini tarixiy-adabiy va nazariy-poetik yondashuvlar asosida, devon va bayozlaridagi asarlarni janr, mavzu, g‘oya hamda poetik vositalar nuqtayi

[1] Мирзиёев Ш. "Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига мурожаатномаси. – 2018. 7 август.www://president.uz

nazaridan tizimli tadqiq etish hamda uning o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rnini ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 16-fevraldagi 124-F-sonli “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308 - son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” Qarori, 2026-yil 26-maydagi PF-98 - son “Yangi avlod ilmiy kadrlarni tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosi sifatida ushbu tadqiqot muayyan darajada ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida XIX-XX asrlar mumtoz adabiyotining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni hamda ma’rifatparvarlik, axloqiy kamolot va insonparvarlik g‘oyalarining badiiy matnda ifodalanish masalalari keng o‘rganib kelinmoqda[2]. Bu masalalar Sharq va G‘arb adabiyoti misolida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan bo‘lib, badiiy

[2] Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – New York: Harcourt Brace, 1956. – 34–36 p.; Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Blackwell, 2008. – 41 p.; Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975. – 71 p.; Meisami J.S. Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. – London: Routledge, 2003. – 52 p.; Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 98 p.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – 112 с.; Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – 72 p.; Bloom H. The Anxiety of Influence: A Theory of Poetry. – New York: Oxford University Press, 1973. – 55 p.; Hodgson M.G.S. The Venture of Islam. Vol. 2: The Expansion of Islam in the Middle Periods. – Chicago: University of Chicago Press, 1974. – 218 p.; Lewis B. The Middle East and the West. – Bloomington: Indiana University Press, 1964. – 64 p.; Chittick W.C. The Sufi Path of Love: The Spiritual Teachings of Rumi. – Albany: State University of New York Press, 1983. – 86 p.; Lewisohn L. The Heritage of Sufism. – Oxford: Oneworld Publications, 1999. – 94 p.; Knysh A. Islamic Mysticism: A Short History. – Leiden: Brill, 2000. – 103 p.; Grabar O. The Formation of Islamic Art. – New Haven: Yale University Press, 1987. – 77 p.; Arberry A.J. Classical Persian Literature. – London: Allen & Unwin, 1958. – 91 p.

matnning ma’naviy-ma’rifiy mazmuni va ijtimoiy g‘oyaviylik o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim ilmiy xulosalar bilan asoslangan[3]. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma’rifatparvar adiblar hayoti, faoliyati va adabiy muhitini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Xususan, N.A.Jabborov[4], N.B.Adizova[5], Q.A.Jumayev[6]. P.Ravshanov[7] kabi olimlar tadqiqotlari bu boradagi muhim izlanishlardan sanaladi. Shuningdek, R.Musamuxammedova, Sh.Yusupov, I.G‘aniyev, B.Qosimov, H.Boltaboyev, D.Quronov, N.Karimov, G‘.Mahmudov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, N.Jabborov, U.Sultonov, N.Afoqova, H.Azimova, U.Hamdamov, M.Tojiboyeva, S.Xo‘jaqulov, B.Muxitdinova kabi olimlar ishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi[8]. Biroq mazkur tadqiqotlarda Ismoilxon Faqiriy hayoti va ijodi, uning poetik merosi hamda adabiy muhit bilan o‘zaro aloqalari monografik tarzda yetarli darajada o‘rganilmagan. Shoir ijodiga oid ayrim ma’lumotlar 2005-yildan boshlab ensiklopedik nashrlar hamda elektron manbalarda, xususan, Wikipedia sahifalarida qayd etilgan[9]. Faqiriyning nasabiga doir yana bir muhim tarixiy manba – Buxoro

---

[3]Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – С.112; Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. – Л.: Наука, 1976. – С.89; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С.63; Брагинский И.С. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1977. – С.143; Конрад Н.И. Запад и Восток. – М.: Наука, 1972. – С.214; Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – New York: Harcourt Brace, 1956. – p.34; Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Blackwell, 2008. – p.41; Meisami J.S. Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. – London: Routledge, 2003. – p.52; Насруллоев М. Таърихи адабиёти форсу тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1987. – С.118; Мирзоев А. Таърихи адабиёти форсӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – С.92.

[4] Jabborov N.A Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi: Filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2004. – 298 b.

[5] Adizova N.B. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Buxoro adabiy muhitida poetik janrlar taraqqiyoti va mahorat masalalari: Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Buxoro, 2018. – 58 b.

[6] Jumayev Q.A. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qashqadaryo adabiy muhiti (manbashunoslik va poetik tahlil): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 26 b.

[7] Ravshanov P. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshi Qashqadaryo vohasi adabiy manbalari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 43 b.

[8] Мусамухамедова П. Р. Жизнь и творчество Факири: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1974. – 25.Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 20.; Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005. – 282 б.; Қосимов Б. Маслакдошлар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 155 б.; Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Фил.фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996; Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 169 б.; Қуронов Д. Чўлпон поэтикаси (насрий асарлари асосида): Фил.фан. номз... дисс. авт. – Тошкент, 1998. – 50 б.; Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999; Маҳмудов Ғ. Жадид адабиётида миллий истиқлол мавзуси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 544 б.; Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: Университет. 2006. – 544 б.; Ризаев Ш. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари: Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995; Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси: Фил.фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Султонов И. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари: Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995; Афоқова Н. Жадид шеърияти поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.; Афоқова Н. Жадид ғазалиёти. – Тошкент: Фан, 2005. – 34 б.; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари: Фил. фан. д-ри... дисс – Тошкент, 2005; XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 536 б.; Азимова Ҳ. Абдулла Авлоний драматургияси (ғоявий маҳорат): Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999. – 137 б.; Ҳамдамов У. XX аср шеърияти бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий психологик хусусиятлари: Фил. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 70 б.; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Фил. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 70 б.; Xo‘jaqulov S. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari tojik adabiyotida lirik janrlarning tadrijiy takomil tamoyillari (an’ana va novatorlik): Fil.fan. d-ri… diss. avtoref – Samarqand, 2022. – 75 b.; Muxitdinova B. XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida adabiy zullisonaylik an’anasi (Saidahmad Vasliy Samarqandiy asarlari misolida): Fil.fan. d-ri… diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – 85 b.

[9] Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zME, 2005.- B. 213.Wikipedia (o‘zbekcha) sahifasi:Izoh: Ismoilxon Faqiriy hayoti vaijodi haqida umumiy tavsif beradi.

amirligining so‘nggi qozi kaloni, mashhur ma’rifatparvar Sadri Ziyo (1867–1938)ning “Ro‘znoma” asaridir[10]. Faqiriyning tarjimayi holi, ijodiy shakllanish manbalari hamda adabiy faoliyati haqidagi dastlabki tarixiy-biografik ma’lumotlar ayrim tadqiqotchilar tomonidan parokanda tarzda keltirilgan bo‘lib, ular tazkira va manoqib xarakteridagi manbalarda uchraydi. Nosir Muhammad “Nasaf va Kesh allomalari” tazkirasida shoir tarjimayi holi va asarlari haqida qisqa va muhim ma’lumotlar berilgan[11]. Tazkira Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag‘ishlab yaratilgan[12]. Mazkur tazkira tarkibida shoir haqidagi tarixiy-biografik ma’lumotlar bilan bir qatorda uning ayrim g‘azallarining keltirilishi ham Faqiriy ijodining adabiy-tarixiy ahamiyatini tasdiqlaydi[13]. Faqiriy hayoti va ijodini o‘rganishda manbashunoslik yo‘nalishidagi ayrim tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sh.Vohidov va A.Erkinovlarning ilmiy izlanishlari Faqiriy devoni, qo‘lyozma manbalari hamda Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitiga oid materiallarni o‘rganish alohida e’tiborga molikdir[14]. Sh.Vohidovning izlanishlari Faqiriy merosini qo‘lyozmalar orqali o‘rganishning ilmiy jihatlarini yoritadi[15]. Ushbu ilmiy ma’lumotlaridan tashqari Faqiriyning ma’rifatparvar shoir va komil shayx sifatida o‘rganish haqida ham dalillar bor[16]. Ushbu manbada Faqiriyning komil shayx, mumtoz shoir va axloqiy-ma’rifiy g‘oyalar targ‘ibotchisi sifatidagi qiyofasi yoritilgan[17]. Faqiriy hayoti va ijodini o‘rganishda tarixshunos olim, shoirning nabirasi Ma’sudxon Ismoiliy tomonidan to‘plangan materiallar ham muhim ahamiyatga ega[18]. Uning tashabbusi bilan 2006-yilda Faqiriy-Shahrisabziy uy muzeyi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu maskan shoir hayoti va ijodiga oid moddiy hamda ma’naviy manbalarni jamlash va saqlash markaziga aylangan[19]. Ushbu kutubxonada shoir ijodiga oid bir qator qo‘lyozma va toshbosma manbalar[20], shuningdek, Faqiriy merosini o‘rganishga doir qo‘shimcha materiallar saqlanmoqda[21]. Bundan tashqari olim ilmiy izlanishlari natijasini “Faqiriy va

[10] Шарифжон махтум Садри Зиё. Рўзнома. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi, nomer: 2277-1-139-A, 141-A varaqlar. Buxoro tarixchilarining asarlari haqida: Sadri Ziyo tomonidan yozilgan “Ro‘znoma” asari Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manba bo‘lib, u tarixiy voqealar, boshqaruv tartibi va ijtimoiy munosabatlarni yoritadi. Izoh:Ushbu asarda Faqiriyning nasl nasabi va bobosi – Inoyatulloxxo‘janing g‘azallar bitgani va ular bilan bo‘lgan do‘stona-ma’rifiy aloqalar xolis tarzda qayd etilgan.

[11] Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,2001. – B.49.

[12] Karimov I.“Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlash to‘g‘risida” gi qarori. 2004-yil 26-mart // Tabrik nutqi. Xalq so‘zi nashri– 2004-yil 27-mart.

[13] Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari: Tazkira. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,2001. – B.51.

[14] Vohidov Sh., Erkinov A. Shahrisabzlik xattot va shoirlar.Ming yillar merosi. Shahrisabz – 2700 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-ma’rifiy to‘plam. – Toshkent: Sharq, 2002. – 126 b.

[15] Vokhidov Sh. “Les particularités paléographiques et codicologiques des fonds particuliers de Ravnaki et Fakiri (Shakhrisabz, Uzbekistan)”, Manuscripta Orientalia, Vol. 9, No. 3, September 2003, pp. 52–56.

[16] Kenjabek M. Mumtoz shoir va komil shayx Faqiriy–Shahrisabziy // Sino. – 2004. № 15. – B. 44–51.

[17] Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy – olim, shoir va shayx // Moziydan sado. – 2004. № 4. – B. 28–31.

[18] Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o‘rni. – Toshkent: Fan, 2002.143 b.

[19]Ismoiliy M. Faqiriy–Shahrisabziyga doir to‘plangan materiallar.Shahrisabz -Sariosiyo uy-muzeyi. Fond № 1, 1-ro‘yxat, 12-yig‘ma jild, 23-varaq.

[20] Ismoiliy M. Faqiriy–Shahrisabziyga oid materiallar: qo‘lyozma nusxalar, tarixiy ma’lumotlar va og‘zaki manbalar asosida tuzilgan to‘plam. Shahrisabz -Sariosiyo uy-muzeyi. Fond № 7, ro‘yxat № 1, yig‘ma jild, 15–18-b.

[21] Faqiriy kutubxonasi qo‘lyozma va toshbosma manbalar fondi. – Shahrisabz, fond № 4, ro‘yxat № 6, yig‘ma jild № 5, 12-varaqlar.

Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida” nomli maqolasi Faqiriy shaxsiyati va faoliyatini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi[22]. Faqiriy ijodini o‘rganishda yana bir muhim manbalardan biri sifatida “Avlodlar bayozi” to‘plamini ham alohida qayd etish lozim[23]. To‘plamda g‘azal, ruboiy, qit’a kabi janrlar mavjud bo‘lib, ular Faqiriy ijodining lirik, irfoniy va ma’rifiy jihatlarini yoritadi[24]. Shuningdek, majmua matnlari davrning adabiy muhiti va poetik an’analarini aks ettirishi bilan Faqiriy merosini tarixiy-adabiy kontekstda talqin etish hamda shoir shaxsini adabiy jarayon bilan uzviy bog‘liq holda yoritish imkonini beradi[25]. Ismoilxon Faqiriy devon va irfoniy she’riyat an’analarini davom ettirgan shoir bo‘lib, g‘azallarida ruhiyat, axloqiy qadriyatlar va ma’naviy izlanishlar yetakchi mavzu sifatida ifodalanadi[26]. Shu bilan birga, Nasaf va Kesh tarixiga oid tarixiy-madaniy tadqiqotlarda Faqiriy yashab ijod etgan davrning ijtimoiy-madaniy muhitiga doir muhim faktologik ma’lumotlar jamlangan[27]. Bu manbalar shoir ijodini tarixiy kontekstda talqin etish uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ismoilxon Faqiriy adabiy merosining g‘oyaviy-badiiy qimmati va ilmiy-nazariy ahamiyatini aniqlash, devonini kompozitsion-janriy xususiyatlar, g‘oyaviy-estetik tamoyillar, mumtoz adabiy an’analar va poetik mahorat uyg‘unligida kompleks tahlil etish orqali shoirning o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Faqiriy hayoti va ijodiga oid manbalarni tizimlashtirish, shoir yashab ijod qilgan adabiy muhitni hamda mumtoz adabiyot vakillari, ustoz va salaflar ijodining uning poetik tafakkuriga ta’sirini qiyosiy-tahliliy asosda aniqlash;

Faqiriy devonining kompozitsion-tarkibiy tuzilishi va janriy xususiyatlarini aniqlash, lirik janrlarning an’anaviy poetik mezonlar hamda ijodiy individuallik asosidagi o‘ziga xos jihatlarini ochib berish;

Shoir she’riyatining mavzuviy va g‘oyaviy yo‘nalishlarini tasniflash hamda undagi ma’rifatparvarlik, ijtimoiy-axloqiy, tasavvufiy-irfoniy va ma’naviy-falsafiy qarashlarning badiiy talqinini ilmiy asoslash;

---

[22]. Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida // Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o‘rni. Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent: Fan, 2002. – 143 b.

[23] Факирий И., Хомидов Н. ва бошқалар. Авлодлар баёзи. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996. – B.11.

[24] Faqiriy I. Ahli duoni izlagil // Hidoyat. – 2004. № 4. – B. 23–27.

[25] Kenjabek M. Mumtoz shoir va komil shayx Faqiriy Shahrisabziy.Sino. – 2004. № 15. – B. 42–51.

[26] Vohidov Sh. Fakiriy // Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom. Ensiklopedik lug‘at. 3-son. - Moskva: Sharq adabiyoti, 2001. - S. 107-108. Izoh: Mazkur ensiklopedik ma’lumotda Shahrisabzlik shoir Ismoilxon Faqiriy hayoti va ijodiy faoliyati haqida qisqacha, lekin ilmiy asoslangan ma’lumotlar berilgan.

[27] Hayitov T. Kesh ummonidagi to‘rt javohir // Hurriyat. – 2021-yil 3-noyabr. – № 6. – B. 5.

Faqiriy she’riyatida mumtoz adabiy an’analar, xususan, muxammas, tatabbu’, tazmin va payravlik an’analarining namoyon bo‘lish xususiyatlariga oydinlik kiritish;

Shoir she’riyatining poetik xususiyatlarini, jumladan, aruz, qofiya tizimi, badiiy san’atlar va poetik vositalarning qo‘llanish qonuniyatlarini tahlil qilish hamda Faqiriy adabiy merosining o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘ziga xos o‘rnini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ismoilxon Faqiriyning lirik devonlari hamda shoir merosiga oid aniqlangan qo‘lyozma, arxiv va boshqa faktik manbalar majmuyi belgilandi.

Tadqiqotning predmetini Ismoilxon Faqiriy devonlaridagi she’riy janrlar tizimi, ularning mavzuviy-g‘oyaviy ko‘lami hamda ijtimoiy-falsafiy va didaktik g‘oyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, ilmiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik, germenevtik, lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko‘rinadi:

shoirning o‘zbek mumtoz adabiyotida yangi tadqiq etilayotgan adib sifatidagi o‘rni, shoir ijodining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan adabiy muhit hamda poetik omillar ilk bor tizimli tahlil qilinib, she’riyatida badiiy san’atlarning qo‘llanilishi, janr, mavzu va poetik tizimni tasniflashga doir ilmiy mezonlar asosida Faqiriy ijodining g‘oyaviy-estetik genezisi yoritilgan;

Shoirning adabiy-estetik qarashlari va ijodiy tamoyillari mumtoz o‘zbek adabiyoti an’analari, jumladan, Alisher Navoiy va mumtoz adabiyot an’analari bilan qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilinib, uning ijodida an’ana va individual badiiy tafakkurning uyg‘unlashuv tamoyillari ilmiy jihatdan dalillangan;

Ismoilxon Faqiriyning o‘zbek adabiyotidagi poetik o‘rni uning adabiy merosining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, devonining tarkibi va janrlar xilma-xilligi, shuningdek, ijodidagi an’anaviylik va yangilikning o‘zaro munosabati asosida ilmiy jihatdan aniqlangan;

Ismoilxon Faqiriy she’riyatining poetik tizimi janr xususiyatlari, muxammas va tatabbu’ yaratish an’analari, qofiya tizimi hamda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish usullari asosida tadqiq etilib, shoir badiiy mahorati va poetik individualligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Ismoilxon Faqiriy ijodining janriy, mavzuviy va poetik xususiyatlari tizimlashtirildi hamda shoirning mumtoz adabiy an’analarni ijodiy davom ettirgani aniqlandi. Tadqiqotda jamlangan faktik va nazariy materiallardan o‘zbek adabiyoti tarixi, mumtoz adabiyot va adabiyot nazariyasiga oid fanlarni o‘qitishda, maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlarida hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, ishonchli manbalardan foydalanilgani, tadqiqot maqsad va vazifalariga mos metodlarning qo‘llanilgani hamda ilmiy xulosalarning tasniflash, tahliliy-qiyosiy, ijodiy-genetik, kontekstual va kompleks tahlil usullari asosida dalillanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya materiallari va ilmiy xulosalar o‘zbek adabiyoti hamda adabiyotshunoslikda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari Faqiriy ijodining g‘oyaviy-badiiy va poetik xususiyatlari, janrlar tizimi hamda mumtoz adabiy an’analar bilan aloqasini yoritishda nazariy ahamiyatga ega. Tadqiqot materiallaridan o‘zbek adabiyoti tarixi, mumtoz adabiyot va adabiyot nazariyasiga oid fanlarni o‘qitishda, maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlarida hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ismoilxon Faqiriy adabiy merosini g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil va tadqiq etish, mazkur muammoning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyatini belgilash natijalari va xulosalari asosida:

shoirning o‘zbek mumtoz adabiyotida yangi tadqiq etilayotgan adib sifatidagi o‘rni, shoir ijodining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan adabiy muhit hamda poetik omillar ilk bor tizimli tahlil qilinib, Faqiriy ijodining g‘oyaviy-estetik genezisi yoritilganligi natijalaridan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan “Qoraqalpoq og‘zaki nasri (janrlar tuzilishi, genezesi, obrazlar tizimi, sujet va motivlari, poetikasi)” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2025-yil 24-dekabrdagi 811/1-son). Natijada janrlar tuzilishi va ularning shakllanish genezisini, obrazlar tizimi, sujet va motivlarning badiiy-funksional xususiyatlarini hamda poetik qurilishini tadqiq etishga doir ilmiy xulosalarni boyitishga asos bo‘lgan.

Shoirning adabiy-estetik qarashlari va ijodiy tamoyillari mumtoz o‘zbek adabiyoti an’analari, jumladan, Alisher Navoiy va mumtoz adabiyot an’analari bilan qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilinib, uning ijodida an’ana va individual badiiy tafakkurning uyg‘unlashuv tamoyillari ilmiy jihatdan dalillanganligi natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2023-2024-yillarda bajarilgan “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1-6355-son). Natijada Alisher Navoiy asarlarining badiiy-estetik xususiyatlarini, mavzu-g‘oya va badiiy shakllar munosabatini, shuningdek, ijodiy yangilanish jihatlarini tizimlashtirish hamda ularni elektron shaklda aks ettirishni takomillashtirishga erishilgan.

Ismoilxon Faqiriyning o‘zbek adabiyotidagi poetik o‘rni uning adabiy merosining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, devonining tarkibi va janrlar xilma-xilligi, shuningdek, ijodidagi an’anaviylik va yangilikning o‘zaro munosabati asosida ilmiy jihatdan aniqlangan. Mazkur ilmiy natijalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yig‘ilishlari hamda ushbu bo‘lim qoshidagi “Sadoqat” ijodiy to‘garagi faoliyatida adabiy suhbatlar tashkil etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 17-dekabrdagi 01-03/475-son ma’lumotnomasi). Natijada yosh ijodkorlarning Faqiriy ijodining o‘zbek adabiyotidagi poetik o‘rni, adabiy merosining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari,

devonining tarkibi va janrlar xilma-xilligi, shuningdek, ijodidagi an’anaviylik va yangilikning o‘zaro munosabati haqidagi bilim va tasavvurlari kengaytirilgan.

Faqiriy she’riyatining poetik tizimi janr xususiyatlari, muxammas va tatabbu’ yaratish an’analari, qofiya tizimi hamda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish usullari asosida tadqiq etilib, shoirning badiiy mahorati va poetik individualligi ilmiy jihatdan asoslab berilganligi ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalardan “Zarafshon” gazetasi tahririyati tomonidan o‘zbek adabiyoti durdonalarini targ‘ib etish, adabiyot va madaniyat sohasidagi ma’naviy muloqotni yoritishga bag‘ishlangan “Zarafshon” gazetasi (“Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari tahririyati davlat muassasasi 2025-yil 24-dekabrdagi 01/91 ERI bilan tasdiqlangan. Hujjat kodi: HE01731855). Natijada Faqiriy ijodining poetik xususiyatlari va badiiy mahoratiga oid ilmiy ma’lumotlarni keng ommaga tushunarli shaklda yetkazish, mumtoz adabiy merosni targ‘ib etish hamda adabiy-publitsistik materiallarning ilmiyligi va ta’sirchanligini oshirishga erishilgan. Tadqiqot natijalari OAVda adabiyot va madaniyat mavzularini yoritishda ilmiylik va ommaboplik uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarida, jumladan, 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan, 6 tasi respublika hamda 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda maqola nashr qilingan.

Tadqiqot tuzilishi va tarkibi. Ish kirish, 3 asosiy boblar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi izohlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Faqiriy hayoti va ijodining tarixiy-nazariy asoslari”** deb yuritiladi. Unda Ismoilxon Faqiriy yashab ijod qilgan ijtimoiy-ma’naviy muhit va uning shoir adabiy-estetik qarashlari shakllanishidagi ahamiyati yoritiladi. XX asr boshlaridagi ma’rifiy uyg‘onish jarayonlari, diniy-falsafiy va tasavvufiy tafakkurning faollashuvi shoir dunyoqarashining g‘oyaviy asoslarini belgilagan. Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitidagi ulamo va ijodkorlar bilan muloqot esa uning poetik kamolotini ta’minlagan. Bob doirasida o‘rganilgan devon,

bayozlar va epistolyar yozishmalar Faqiriy merosining asosiy manbalari sifatida shoir ijodining janriy tarkibi, mavzu doirasi hamda badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, zamondoshlari bilan olib borilgan yozishmalar uning mumtoz poetika qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Faqiriy adabiy-estetik qarashlarining shakllanishida Navoiy, Sa’diy, Lutfiy, Fuzuliy, Bedil kabi salaf shoirlar merosi hamda zamondosh ijodkorlar tajribasi muhim rol o‘ynagan. Shoir ushbu an’analarni ijodiy davom ettirib, asarlarida mumtoz poetika mezonlarini ma’rifatparvarlik va falsafiy mushohada bilan uyg‘unlashtirganligi asoslandi. Birinchi bobning ilk faslida *“Adabiy muhit rivojida Faqiriy ijodining o‘rni”* masalasi yoritilgan. Ushbu faslda Faqiriy ijodining shakllanishi va taraqqiyotida adabiy muhit hamda tarixiy davrning ta’siri ilmiy-metodologik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Faslda Ismoilxon Faqiriy ijodi XIX–XX asrlar tutash davrida Shahrisabz adabiy-madaniy muhitining ijtimoiy-ma’naviy va g‘oyaviy-estetik omillari ta’sirida shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Mazkur davr adabiy jarayonlari shoir dunyoqarashi, g‘oyaviy pozitsiyasi hamda badiiy-estetik qarashlarining qaror topishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Shoir she’riyatida mumtoz poetik an’analar, diniy-axloqiy hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalari ustuvor o‘rin egallaydi. Bu xususiyatlar Shahrisabz adabiy muhitida davom etgan adabiy an’analar, xususan, ikki tilli ijod, devon tuzish va bayozchilik bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Shu bilan birga, mazkur faslda shoir asarlarining janriy-poetik tizimi maxsus tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilib, an’anaviy mumtoz janrlarning saqlanishi bilan bir qatorda, ularning mazmuniy, funksional va kommunikativ jihatdan yangilanish hamda transformatsiyalanish jarayonlari tahlil qilinadi. Ushbu davrda yashab ijod qilgan adiblar adabiy jarayonning uzviy davomiyligini ta’minlagan zamondosh va maslakdosh ijodkorlar sifatida muhim ma’naviy-estetik kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shahrisabz qadimdan ilm va adab markazlaridan bo‘lib, mazkur davrda ham ushbu an’ana izchil davom etdi. Bu jarayonda Ismoilxon Faqiriy Shahrisabziy (1910-1980) bilan bir qatorda Mirzo Umrboqiy Shahrisabziy-Samarqandiy (1878-1957)[28], Fayzulloxo‘ja Ravnaqiy (1892-1978), Abdulloh Gulshaniy[29] (1898-1978) kabi adiblarning faoliyati beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ularning barchasi Shahrisabzda tug‘ilib, shu yerda umr kechirgan, adabiy muhitni boyitgan fozil, shoir va ma’rifatparvarlar sifatida turli adabiy majlislarda faol ishtirok etgan. Aynan shu ijodiy muhit Faqiriy ijodining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Faqiriy ham shu muhit ta’sirida mumtoz poetik an’analarga sodiq yashagan, uning ijodiy pozitsiyasi zamonaviy manfaatlardan ko‘ra abadiy ma’naviy qadriyatlarga tayanishi bilan xarakterlanadi. Shoir yoshligidan Habibiy, Xoji Mirzo Hamiduddin Maxdum Hamidiy, Qone’ Shukrulloh Xo‘ja, Inoyatulloh Xo‘ja O‘roq Jurmiy, Mulla Mirzo Fayzulloh Xo‘ja Ravnaqiy, Mirzo Umrboqiy Shahrisabziy[30] kabi ulamo va ijodkorlar davrasida

[28] Xurramova Z.S. Mirzo Umrboqiy hayot yo‘li va adabiy merosi xususida // Oltin bitiglar — Golden scripts. № 3, 21-32-betlar – 2023. – Vol. 3. – URL: https://goldenscripts.navoiy-uni.uz/index.php/goldenscripts/article/view/126.
[29] Hamzayeva Z. (2024). Shahrisabzlik shoir va xattotlar. International Journal of Scientific Researchers, Volume 9, Issue 1, December 2024, 21-23. ISSN 3030-332X. Worldly Knowledge.https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR.
[30]Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.6

kamol topib, ilmiy-ijodiy salohiyatini mustahkamlagan. Ushbu davrda g‘azal, ruboiy va qasida kabi janrlar shaklan an’anaviy qolgan holda, mazmunan ijtimoiy-ma’rifiy hamda axloqiy g‘oyalar bilan boyiganligi ilmiy tahlil asosida ko‘rsatib beriladi. Davrning tarixiy-estetik tamoyillari Faqiriy lirikasida ijtimoiy va axloqiy g‘oyalar, insoniy fazilatlar hamda ilohiy muhabbat mavzularining ustuvorligini ta’minladi. Shu jihatdan uning ijodi o‘zbek adabiyotida nasihat, murabbiylik va ma’rifatparvarlik ruhidagi didaktik adabiyot namunalari rivojiga xizmat qilgan badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, Shahrisabz adabiy muhitining Ismoilxon Faqiriy ijodiga ko‘rsatgan ta’siri shoir asarlarining badiiy-mavzuviy yo‘nalishi, didaktik va falsafiy qarashlari hamda poetik uslubining shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Natijada shoir ijodi o‘z davrining adabiy jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan, ma’naviy-ma’rifiy va estetik qadriyatlarni mujassam etgan muhim ilmiy-badiiy manba sifatida baholanadi.

Birinchi bobning 2-fasli *“Shoir hayoti va ijodi manbalari”*masalasiga bag‘ishlagan bo‘lib, Ismoilxon Faqiriy hayoti va ijodini o‘rganishda tayanch bo‘luvchi manbalar tizimi tasniflanadi hamda ularning ilmiy-badiiy ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida shoir merosi birlamchi va qo‘shimcha manbalar asosida kompleks ravishda o‘rganildi. Shoirning tarjimayi holi, ijodiy shakllanishi va adabiy faoliyatiga doir dastlabki tarixiy-biografik ma’lumotlar turli tadqiqotlarda parokanda holda uchraydi. Bu ma’lumotlar, asosan, tazkira va manoqib xarakteridagi manbalarda saqlangan. Xususan, Nosir Muhammadning “Nasaf va Kesh allomalari” tazkirasida Faqiriyning hayoti va ijodiga oid qisqa, ammo muhim ma’lumotlar berilgan. Ushbu tazkiraning Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag‘ishlab yaratilgani Faqiriy adabiy merosining hududiy adabiy jarayon tarkibida e’tirof etilganini ko‘rsatadi. Tazkirada shoir haqidagi biografik ma’lumotlar bilan birga ayrim g‘azallarining ham keltirilishi Faqiriy ijodining adabiy-tarixiy ahamiyatini tasdiqlaydi. O‘zbek adabiyotshunosligida Faqiriy hayoti va ijodini o‘rganishda manbashunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Sh.Vohidov va A.Erkinovlarning ilmiy izlanishlari Faqiriy devoni, qo‘lyozma manbalari hamda Shahrisabz ilmiy-adabiy muhiti bilan bog‘liq materiallarni tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Faqiriyning nasabiga doir yana bir muhim tarixiy manba – Buxoro amirligining so‘nggi qozikaloni, mashhur ma’rifatparvar Sadri Ziyo (1867-1938)ning “Ro‘znoma” asaridir[31]. Bu manba Faqiriy naslining tarixiy hamda madaniy kontekstdagi o‘rni haqida ilmiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi. “Ro‘znoma” asari Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy hayoti, boshqaruv tizimi hamda jamiyatdagi munosabatlarni zamondosh nigohida yorituvchi muhim tarixiy manba sifatida baholanadi. Ushbu yozuvlar bugungi tadqiqotlar uchun ham qimmatli ilmiy manba bo‘lib, Faqiriyning nasli Sharq ilm-ma’rifati va tasavvufiy-adabiy an’analar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Sadri Ziyoning bu boradagi ma’lumotlari muhim ilmiy ahamiyatga ega.

[31]Шарифжон Махтум. Садри Зиё. Рўзнома. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi, nomer: 2277-1-149-A, 141-A varaqlar. Buxoro tarixchilarining asarlari haqida: Sadri Ziyo tomonidan yozilgan. Izoh; *“Ro‘znoma”* asari Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manba bo‘lib, u tarixiy voqealar, boshqaruv tartibi va ijtimoiy munosabatlarni yoritadi.

Ushbu asarda Faqiriyning bobosi – Inoyatulloxxojaning g‘azallari va ular bilan bo‘lgan do‘stona-ma’rifiy aloqalar xolis tarzda qayd etilgan. Inoyatulloxxoja Buxoroda din arbobi, mudarris va qozikalon lavozimlarida xizmat qilgan shaxs bo‘lib, o‘z davrining bilimdon ziyolilaridan biri hisoblangan. Shu jihatdan shoir avlodlarining diniy-ma’rifiy faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham muntazam shug‘ullangani anglashiladi. Shahrisabz-Kitob vohasi o‘sha davrlarda ilmiy faolligi, tasavvufiy an’analarining kuchliligi bilan ajralib turgan hududlardan biri bo‘lgan. Bundan tashqari, Faqiriy qalamiga mansub devon hamda “Mutafarriqot” nomi bilan jamlangan epistolyar materiallar asosiy manba sifatida tahlil qilinadi. Ushbu yozma meros shoirning poetik dunyoqarashi ijtimoiy-falsafiy qarashlari va g‘oyaviy-estetik mezonlarini bevosita aks ettiradi. Ayniqsa, maktublar va musaddaslar tarkibida namoyon bo‘lgan ijtimoiy-ma’rifiy motivlar Faqiriy ijodining keng aniqlash imkonini beradi. Bu bo‘limda Faqiriy o‘tmish va zamon sharoitidagi Qur’oni karim va hadis ilmi, fiqh va shariat masalalari bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirgan[32]. Maktublar orqali Faqiriy zamondoshlari bilan ilmiy-fikriy muloqot olib borib, murakkab diniy va falsafiy masalalarni sodda hamda mantiqan asoslangan tarzda izohlashga intilgan. Bu yozishmalar uning tafakkur yetukligi, ilmiy munozara madaniyati va adabiy didini namoyon etadi. “Mutafarriqot” to‘plamining muhim qismini Faqiriy bilan Mirzo Kamol domla (1884–1975) o‘rtasidagi yozishmalar tashkil etib, ularda adabiy janrlar, uslub va devon adabiyotiga oid masalalar muhokama qilingan.

Manbashunos olimlar Shodmon Vohidov va Mas’udxon Ismoiliyning sa’y-harakatlari natijasida Faqiriy nomi nafaqat milliy, balki jahon ilmiy hamjamiyatida ham tanildi. Shu ma’noda, Faqiriy ularning ilmiy va ma’rifiy “kashfiyoti” hisoblanadi. Ular shoir devonining manba sifatida topilib o‘rganilishi hamda devon tabdili asosida bayoz shaklida nashr etilishiga katta hissa qo‘shgan olimlardir. Faqiriyning ilmiy-ma’naviy kamolotida uning nasl-nasabi va oilaviy-adabiy muhiti muhim o‘rin tutgan. Katta bobosi Mirakshoxo‘ja Buxoroda nufuzli lavozimni egallab, Balx viloyatiga qozikalon etib tayinlangan. Otasi Ibrohimxon Hidayatulloxxoja o‘g‘li Shahrisabzdagi “Dor ut-tilovat” jome’ masjidida imom-xatib, madrasada mudarris hamda Buxoroning diniy vakili sifatida faoliyat yuritgan. Onasi Bibi Musharrafa “Mahzuna” taxallusi bilan ijod qilgan shoira bo‘lib, oiladagi adabiy muhit Faqiriyning badiiy-estetik qarashlari shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, onasi va ukasi Najmiddinxon Najotiy bilan ruhiy-ijodiy yaqinlik shoir ijodida muhim iz qoldirgan. Faqiriyning to‘liq ismi – Ismoilxon Ibrohimxon o‘g‘li Faqiriy Shahrisabziy 1910-yilda qadimiy Shahrisabzning ilm-fan va ma’rifat an’analari yuksak bo‘lgan muhitida, ziyoli va nufuzli oilada tug‘ilgan. “Ismoilxon” oilaviy nasabning yuksak maqomini, “Ibrohimxon o‘g‘li” ma’rifatli sulolaga mansubligini, “Faqiriy”[33] uning taxallus

[32] Ismoilxon Faqiriy. “Ahli duoni izlagil” // *Hidoyat*, 2004. N4, 3-b.

[33]Alisher Navoiy ijodida faqir talqinini va faqir obrazi. Ramazonov, Nodir Normurodovich. O‘zbek adabiyoti bo‘yicha nomzodlik dissertatsiya Toshkent, 2019. – 133-bet. Ushbu manba Alisher Navoiy ijodida faqir talqini va faqir obrazini o‘rganishda asosiy ilmiy vosita sifatida ishlatiladi. Unda “faqir” so‘zi izohi, uning ruhiy va tasavvufiy mazmuni, shuningdek, ko‘plab ijodkorlar tomonidan taxallus sifatida tanlanish sabablari tahlil qilinadi. Izoh: Muallif bu holatni tasavvufiy falsafa bilan bog‘lab, faqir obrazining poklik, Allohga muhabbat va ma’naviy kamolot bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

maqomini, “Shahrisabziy” ma’naviy-madaniy makonini belgilaydi. “Faqiriy” taxallusini tahlil qilishdan oldin, uning asosiy komponenti bo‘lgan “Faqir”[34] so‘zining etimologiyasiga e’tibor qaratish muhimdir. Arab tilidan kirib kelgan “faqir” (فقير) so‘zi “moli yo‘q, kamtarlik bilan yashovchi kishi” degan ma’noni anglatadi, lekin tasavvufiy adabiyotda bu so‘z ruhiy kamolot, Allohga bo‘lgan to‘liq bog‘lanish va dunyo ne’matlariga ko‘ngil bog‘lamaslik ma’nolarini ham kasb etgan.

Birinchi bobning 3-fasli “*Shoir adabiy-estetik qarashlarining shakllanishi”* deb nomlanib, unda Ismoilxon Faqiriy dunyoqarashi va poetik tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin tutgan ilmiy-ma’rifiy muhit, ustoz-shogird an’analari hamda mumtoz adabiyot vakillari ijodiy merosining shoir badiiy tafakkuriga ko‘rsatgan ta’siri adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, Faqiriy ijodida an’anaviy poetik qarashlarning davomiyligi yoritilib, shoir adabiy-estetik qarashlarining shakllanishida uning zamondoshlari bilan olib borgan ilmiy-adabiy muloqoti hamda salaf ijodkorlar merosiga munosabati muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Bu jarayonni yoritishda shoirning shaxsiy kutubxonasida saqlangan “Mutafarriqot” to‘plami alohida manbashunoslik ahamiyatiga ega[35]. Shoir mumtoz turkiy va forsiy adabiyot namunalari bilan muntazam tanishib borgan. Xususan, Shayx Sa’diyning *“Bo‘ston”* va *“Guliston”*, Firdavsiyning *“Shohnoma”*, Nizomiyning *“Xamsa”*, Navoiyning devonlari va *“Xamsa”*asari, shuningdek, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy ijodlari namunalarini, mutolaa qilishi uning badiiy tafakkuri va estetik qarashlarini boyitgan[36]. Faqiriy ushbu manbalarni nafaqat o‘rgangan, balki ulardagi poetik usullarni o‘rganib uni o‘z g‘azallarida yangicha ruhda talqin qilishga harakat qilgan, ayrim hollarda tatabbu’ va nazira yo‘li bilan ijodiy o‘zlashtirgan. Navoiy yaratgan g‘azal poetikasi, tasavvufiy-irfoniy tafakkur va yuksak badiiy til an’analari Faqiriy she’riyatida davom ettiriladi. Faqiriy ijodi jamlangan devon Navoiy an’anasiga muvofiq hamd va na’t bilan boshlanadi. Navoiyga xos tasavvuf falsafasi va didaktik yo‘nalish Faqiriy she’riyatida axloqiy-ma’rifiy ruhning kuchayishiga olib kelgan. Uning asarlarida pand-nasihat ohangi, inson kamoloti masalalariga e’tibor aynan shu an’ananing davomidir. Navoiy asarlarida insonparvarlik, halollik, ilm-fan, ilohiy ishq, mehr-oqibat kabi g‘oyalar targ‘ib qilinadi. Faqiriy ham bu g‘oyalarni davom ettirgan: u ham ishq ahlini va xalqni ma’naviy poklikka chaqirgan. U o‘z g‘azallarida ko‘pincha Navoiy qahramonlarini yodga olib, unga taqlid qilgan, ijodidan ilhom olganini bildiradi:

Dasht uza Majnun kebi sargashtadurmen, to erur
Ul musofir mahvashim Layli kebi sahronishin[37]

---

[34] Faqir (arabcha: فقير) so‘zning asl ma’nosi “kambag‘al, muhtoj” bo‘lib, arab tilidagi faqr (فقر) “kambag‘allik, muhtojlik” dan olingan. Islom madaniyatida bu atama tasavvufiy kontekstda, Allohga bo‘lgan chin ehtiyojni anglatadi; so‘fiylar va So‘fi dervishlar uchun Allohga to‘liq bog‘lanish va moddiy dunyodan yiroqlashganlik holati sifatida ishlatiladi.

[35] Ismoiliy M.*“Mutafarriqot” maktublar to‘plami. Faqiriy–Shahrisabziyga doir to‘plangan materiallar //* Shahrisabz Sariosiyo. Faqiriy uymuzeyi arxivi. – VI-fond,. 15-raqam, 5-varaq.

[36] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.12

[37] Navoiy, A. Xazoyin ul-maoniy: Badoyi’ ul-vasat // Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 5-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 234.

Majnunoso ishq vodiysida sargardonduman
Laylidek bu dahrni aylading safo, bir noz etib[38].

Har ikki g‘azal parchasida oshiqning ruhiy holati Majnun obrazi orqali ifodalanadi**.** Navoiyda Majnun ishq yo‘lida sargardonlikning klassik timsoli sifatida berilsa, Faqiriy bu obrazni badiiy talqin qilib, “Majnunoso” shaklida o‘z poetik tizimiga singdiradi.

Lutfiy ijodiy merosi Ismoilxon Faqiriyning adabiy-estetik qarashlari va poetik mahorati shakllanishida muhim manbalardan biri bo‘lgan. Lutfiyning sodda, ravon va xalqona ifoda usuli, ishqiy kechinmalarni samimiy tasvirlash mahorati Faqiriy lirikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Shoirning “Muxammasi Faqiriy bar g‘azali Lutfiy” nomli ijod namunasi Lutfiy g‘azaliyotiga ijodiy munosabatini hamda mumtoz poetika an’analarini chuqur o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. “Muxammasi Faqiriy bar g‘azali Lutfiy” deb nomlanuvchi muxammasi fors tojik tilida bitilgan bo‘lib, shoirning nafaqat turkiy balki fors-tojik tilida ham mohirona ijoq qilganini bildiradi:

Kay buvad bodi sabo az yoram axbor ovarad,
Mujdahoi marhamat z-on sho‘xi ayyor ovarad[39]

Ushbu baytda oshiqona ruh, yor timsolining badiiy talqini, xalqona ibora va tasvir vositalarining qo‘llanishi ikki shoir poetikasidagi mushtarak jihatlarni belgilaydi. Faqiriy Lutfiy an’analarini ijodiy davom ettirib, g‘azallarida mumtoz poetik shakl bilan xalqona ohangni uyg‘unlashtirgan.

Faqiriy mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirgan holda o‘zidan avvalgi ijodkorlarni ijodiy ustoz va salaf sifatida e’tirof etadi hamda ularning g‘azallariga muxammas, tazmin va nazira yaratadi. Xususan, “Muxammasi Faqiriy bar g‘azali Fuzuliy” asari Fuzuliy g‘azalidan bevosita ilhomlanib yozilgan bo‘lib, unda shoir salaf ustoz ijodini badiiy boyitish orqali yangi badiiy qatlam hosil qiladi. Muxammasda Fuzuliyning g‘azalida keltirilgan “san” so‘zini asos va radif qilib oladi:

Novakingdin jon aro yuz zaxm paydodur saning,
Ko‘zlaringdin fitnavu oshub barpodur saning[40].

Faqiriy ushbu obrazli satrlarni boyitgan holda ularga yangi mazmun berishga va badiiy ta’sirchanligini oshirishga harakat qiladi. Ushbu muxammas Faqiriyning Fuzuliyni ijodiy ustoz sifatida tan olganini, uning ishq falsafasi va badiiy an’analarini chuqur o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. Fuzuliyga xos hijron, sabr, ilohiy ishq motivlari Faqiriy she’rlarida chuqur lirizm va ichki kechinmalar ifodasi sifatida aks etadi. Faqiriyning Bedil, Gulshaniy, Hamidiy, Amir, Muxlis Namangoniy, Boqiy, Mullo Orif Gulxaniy, Habibiy, Furqat, Ulfat, Sayyid Ahmad Vasliy, Tufayliy (ya’ni Yusufxonto‘rayi Dehnaviy)[41] g‘azallariga muxammas hamda tazminlar bitgani uning mazkur ijodkorlar bilan adabiy-estetik jihatdan hamfikr bo‘lganini ko‘rsatadi.

[38] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.71.
[39] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.143.
[40] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.90
[41] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.82-104.

Xulosa qilib aytganda, birinchi bobda jamlangan manbalar tizimi Faqiriy ijodini tarixiy-adabiy jihatdan o‘rganish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi hamda keyingi boblarda amalga oshiriladigan poetik va g‘oyaviy tahlillar uchun zarur metodologik vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Faqiriy devoni: an’ana va o‘ziga xoslik”** masalalari yoritilgan bo‘lib, unda shoir adabiy merosining markaziy yadrosi hisoblangan devon matni ilmiy-nazariy hamda badiiy-estetik mezonlar asosida tahlil qilindi. Mazkur bobda devonning kompozitsion qurilishi, janrlar tizimi, an’anaviy mumtoz mezonlar bilan uzviy aloqadorligi hamda individual poetik jihatlari adabiyotshunoslik metodologiyasi doirasida izchil yoritiladi. Bobning *“Faqiriy devoni tuzilishi va janrlari”* deb atalgan 1-faslida Ismoilxon Faqiriy devonining tuzilishi, tarkibi, ayniqsa, undagi mumtoz janrlarning ko‘pligi adabiyotda qo‘llanilishi atroflicha tahlil qilinadi. Har bir janrning devon tarkibidagi funksional vazifasi, badiiy-estetik o‘rni hamda poetik tizimdagi roli tahlil qilinadi. Faqiriy devoni 1950–1965-yillar oralig‘ida tuzilgan bo‘lib, unda muallif tomonidan sinchkovlik bilan saralangan g‘azallar, she’rlar jamlangan. Lirik devon mumtoz nazm an’analariga to‘la mos holda shakllantirilgan bo‘lib, unda g‘azal, muxammas, musaddas, musabba’, musamman, mustahzod, masnaviy, ruboiy, fard va qit’a kabi janrlar qamrab olingan. Shuningdek, unda tatabbu’ va tazmin kabi an’anaviy badiiy usullar bilan bir qatorda muvashshah hamda mutoyibot, ya’ni hazil yo‘sindagi she’rlar ham uchraydi. Faqiriyning devon tuzishi faqat she’rlarni jamlash emas, balki mumtoz an’anaga sodiqlik, ijodiy merosni asrash va o‘z ma’naviy-ijodiy qiyofasini namoyon etishga qaratilgan ongli adabiy jarayondir. Faqiriy devon tuzishdagi an’anaga rioya qilib, o‘z devonini hamd va na’t bilan boshlagan.

Mumtoz adabiyotda devonni hamd va na’t bilan boshlash qadimiy odob va an’ana sanaladi. Zotan, mumtoz shoirlar ijodiy merosini Yaratganga hamd, Payg‘ambar alayhissalomga salovot va madh bilan bezashni badiiy hamda ma’naviy zarurat deb bilganlar. Faqiriy ijodidan olingan ushbu munojot ohangidagi misralar mumtoz she’riyatning tasavvufiy ruhini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, unda shoirning iltijoli kayfiyati, banda ojizligi va Alloh rahmatiga bo‘lgan ehtiyoji badiiy ifodasini topgan:

Ilohi, bu Faqiriyni O‘zing dilshod qil, yo Rab,
Tanin qaydi balodan bir yo‘li ozod qil, yo Rab,
Xarob o‘lmish dilini lutf ila obod qil, yo Rab,
Hama sabru rizog‘a jismini mo‘tod qil, yo Rab[42].

Mazkur parchada aruz tizimiga xos ohang va musiqiylik yaqqol seziladi. Misralarning ritmik tuzilishi, bo‘g‘inlar muvozanati va ohangdor oqimi uni hazaj bahri doirasida baholashga imkon beradi. Faqiriy o‘z asarlarini kamtarona baholagan bo‘lsa-da, uning ijodida Navoiy va Fuzuliy merosidan ilhomlanish, an’anaviylik bilan bir qatorda poetik o‘ziga xoslikning shakllanishiga xizmat qilgani muhim omil sifatida ko‘zga tashlanadi. Faqiriy devoni o‘zbek adabiyotida mustamlaka davri sharoitida sezilarli darajada susaygan devon adabiyoti

[42] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.21

an’analarini davom ettirgan nodir manba sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bobning *“Shoir asarlaridagi mumtoz an’analarning ma’rifiy talqini”* deb atalgan 2-faslida Ismoilxon Faqiriy she’riyati mumtoz sharq adabiyoti an’analari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Faqiriy she’riyati XIX asr o‘zbek mumtoz adabiy jarayonining uzviy davomchisi sifatida shakllangan badiiy-estetik hodisa bo‘lib, unda klassik poetika an’analari tizimli va izchil ravishda saqlangan hamda ijodiy rivojlantirilgan. Shoir ijodi Sharq mumtoz adabiyotiga xos janr tizimi – g‘azal, ruboiy, muxammas va qasida kabi shakllarning faol qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Faqiriy she’riy merosi Sharq mumtoz adabiyoti vakillari: Nizomiy, Jomiy, Sa’diy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy va Bedil ijodiy an’analari bilan intertekstual bog‘liqlikda rivojlangan. Shoir ushbu adabiy merosni ijodiy qayta ishlash orqali o‘ziga xos individual poetik uslubni shakllantirgan. Shoirning individual o‘ziga xos poetik uslubini ijtimoiy, falsafiy xulosalarida ko‘rishimiz mumkin. Bu esa mansab va saltanatning o‘tkinchiligini eslatib, istibdodning mohiyatan befoyda ekanini ko‘rsatadi:

Zamin bo‘lding, na bo‘lding; osmon bo‘lding, na bo‘lding?
Xazin bo‘lding, na bo‘lding; shodmon bo‘lding, na bo‘lding?[43]

Bu bayt orqali shoir insonni oxirat va abadiyat haqida o‘ylashga chorlaydi. Demak, Faqiriy ijodida mustabid tuzum tanqidi faqat siyosiy norozilik emas, balki chuqur ma’naviy-falsafiy mushohada darajasiga ko‘tariladi. Natijada uning ijodida an’ana va shaxsiy ijodiy yondashuv sintezi yuzaga kelgan. Bu jarayon Shahrisabz adabiy muhitining madaniy-estetik imkoniyatlari bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lib, unda mumtoz poetika va tasavvufiy-ma’rifiy tafakkur uyg‘unlashgan adabiy muhit shakllangan. XIX asr mumtoz she’riyatida an’ana va yangilanish dialektikasi badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo‘lsa, Faqiriy ijodi ushbu jarayonning yorqin ifodasidir. Shoir Alisher Navoiy tomonidan shakllantirilgan mumtoz poetik tizim – tasavvufiy-falsafiy qarashlar, g‘azal janrining strukturaviy mezonlari va ma’naviy-estetik tamoyillarni ijodiy davom ettirgan holda, ularni o‘z davri ruhiyati va individual ijodiy tajriba asosida qayta talqin etadi. Shu bilan birga, u an’anaviy poetik tizimni lirizm va hissiy ifoda kuchi bilan boyitadi. Faqiriy she’riyatida ma’rifiy-didaktik g‘oyalar ham muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, zullisonaynlik an’anasini davom ettirish ham shoir ijodidagi muhim o‘ziga xosliklardan biridir. U turkiy va fors-tojik tillaridagi asarlarida umumiy g‘oyaviy uyg‘unlikni saqlagan holda, har bir tilning poetik imkoniyatlarini mustaqil badiiy talqin bilan boyitadi. Shuningdek, Faqiriy she’riy merosining g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi hamda poetik tizimi shakllanishida Navoiy an’analarining ta’siri muhim ilmiy-adabiy omil sifatida baholanadi. Shoirning o‘z devoni kirish qismida e’tiroflariga ko‘ra, u Alisher Navoiy asarlarini juda yoshligidan boshlab yod olgan. Mazkur holat Faqiriyning mumtoz adabiyotga bo‘lgan qiziqishi va estetik qarashlari shakllanishida Navoiy ijodining yetakchi manba bo‘lganidan dalolat beradi. Navoiy asarlarida insonparvarlik, halollik, ilm-fan, mehr-oqibatdan tashqari haqiqiy ishq alohida madh etiladi. Faqiriy ham bu g‘oyalarni davom ettirgan – u xalqni ma’naviy poklikka chaqirgan. U o‘z

[43] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.30.

g‘azallarida ko‘pincha Navoiy asarlaridagi qahramonlarni yodga olib, unga taqlid qilgan, ishqi ulardan kam emasligini e’tirof etgan:

Ishq bobida o‘zumni kam demam Farhoddin,
Laylinin sargashtasi Majnuni dil noshoddin.
Dod etarman ishq aro sen qoshlari jalloddin,
Rahm qil Faqriyg‘a qutqor bu kabi bedoddin[44]

Shu bilan birga, shoir ijodida individual poetik tafakkur unsurlari ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Faqiriy an’anaviy badiiy shakllarni yangi g‘oyaviy mazmun bilan boyitib, ijtimoiy-falsafiy mushohadalarni kuchaytiradi, inson ruhiyati va ma’naviy izlanishlarini teran psixologik tasvir orqali ifodalaydi. Bobning *“Faqiriy she’riyatida ijtimoiy-falsafiy va didaktik g‘oyalar ifodasi”* masalasi yoritilgan 3-faslida Faqiriy she’riyatida ijtimoiy-falsafiy tafakkur hamda didaktik qarashlarning badiiy ifodasi ilmiy-nazariy va lingvopoetik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Didaktik g‘oyalar shoir lirikasida pand-nasihat ruhining kuchliligi, ilm va ma’rifatni ulug‘lash hamda insonni jaholatdan xalos etishga da’vat etish orqali ifodalanadi. Natijada Faqiriy she’riyatida ijtimoiy-falsafiy tafakkur va didaktik g‘oyalar o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘lib, shoir o‘z davrining ma’naviy-ijtimoiy muammolariga badiiy tafakkur orqali munosabat bildirgani aniqlanadi. Uning ayrim she’rlarida zamona ahvoli, insoniy qadriyatlarning yemirilishi, riyokorlik va kibr kabi illatlar badiiy tahlil etiladi. Bu mavzular ochiq ijtimoiy tanqid shaklida emas, balki mumtoz she’riyatga xos kinoya va ramziy ifoda vositalari orqali beriladi. Mazkur holat Faqiriy ijodining davr adabiy jarayoniga befarq bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Shoir ayrim g‘azallarda zamona adolatsizliklari va ijod yo‘lidagi turli to‘siqlar tufayli o‘zini g‘arib his qiladi:

G‘arib o‘ldum bu mulk ichra, makonimdin judo tushtum,
Turarda manzilu ham honumonimdin judo tushtum,
Yotibon sahni g‘amda har zamon javru jafo ko‘rdum,
Agar hush istadim, ilgimda nishi ajdaho ko‘rdum[45].

Keltirilgan parcha Faqiriy ijodida ijtimoiy-falsafiy mazmunning kuchayganini yaqqol ko‘rsatadigan namunalardan biridir. Bu yerda shoir faqat shaxsiy dard yoki tasavvufiy iztirob bilan cheklanmaydi, balki o‘z davrining ijtimoiy muhitini, zamona ahlining axloqiy inqirozini va insoniy munosabatlarning buzilishini chuqur badiiy umumlashtirish darajasiga ko‘taradi. Shoir o‘zini jamiyat ichida begonalashgan, makon va yaqinlardan judo holatda tasvirlab, g‘ariblikni nafaqat shaxsiy iztirob, balki ijtimoiy va ma’naviy begonalashuv sifatida talqin etadi. Ruh va jism uyg‘unligining buzilishi, mehr-sadoqat rishtalarining uzilishi hamda zamona kishilarining zulm va adolatsizligi ramziy obrazlar orqali ochib beriladi. “Ajdaho nishi” timsoli mansabparastlik, riyo va xiyonat hukmron bo‘lgan ijtimoiy muhitni ifodalasa, vafo tushunchasining yo‘qolishi davrning axloqiy inqirozini ko‘rsatadi. Faqiriy ijodida shaxsiy kamtarlik, ilmga muhabbat va dunyodan yiroqlik g‘oyalari o‘zaro uyg‘unlashgan holda aks etadi. Shu bilan birga, shoirning

[44] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.99.
[45] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B. 85

o‘z davrida nafaqat shaxsiy, balki nasihatomuz rolini ham e’tirof etishi sifatida qaraladi.

O‘g‘lum, bu aziz umrga jur’at qilg‘il,
Ilmu hunar o‘rganishga g‘ayrat qilg‘il[46].

Mazkur misralarda shoir nasihatomuz ohangda inson hayotining qadrini anglash, uni mazmunli o‘tkazish g‘oyasini ilgari suradi. Aziz umrni qadrlash va jur’at bilan yashash zarurligi ta’kidlanib, ilm va hunar egallash orqali ma’naviy hamda kamolotga erishish targ‘ib etiladi.

Faqiriy she’riyatida ijtimoiy-falsafiy va didaktik g‘oyalar o‘zaro uyg‘un holda badiiy ifodalangan. Shoir ilm-ma’rifat, axloqiy kamolot va jaholatdan xalos bo‘lish g‘oyalarini ilgari surish barobarida, davrning ma’naviy-ijtimoiy muammolariga munosabat bildirgan. Mazkur jihatlar Faqiriy ijodining ijtimoiy-falsafiy mazmunini belgilovchi muhim poetik xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida Ismoilxon Faqiriy she’riyatining mazmuniy va badiiy xususiyatlari tizimli tahlil etiladi. Bob **“Badiiy mahoratning mazmun va g‘oyadagi ifodasi”** deb nomlanib, unda shoir ijodining mavzu va g‘oya ko‘lami, badiiy ifoda imkoniyatlari hamda mazmun va shakl uyg‘unligi bilan bog‘liq masalalar yoritiladi. Unda Faqiriy she’riyatida mavzular ko‘lami va badiiy tasvir vositalarining funksional xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Faqiriy she’riyatida hayotning o‘tkinchiligi, inson va jamiyat munosabatlari didaktik g‘oyalar bilan uyg‘unlashadi. Shoir badiiy tasvir vositalari – ramziy obrazlar, tashbeh va istioralardan mahorat bilan foydalanib, poetik fikrning estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi. Bobning *“Ismoilxon Faqiriy she’rlari mavzusi va g‘oyasi”* deb nomlangan birinchi faslida shoir she’riyatining mavzuviy ko‘lami va badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shoir lirikasida ishqiy, tasavvufiy-irfoniy, didaktik hamda ijtimoiy-falsafiy motivlar o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Faqiriy devonining mazmuniy va g‘oyaviy yo‘nalishi serqatlam bo‘lib, unda mumtoz she’riyatga xos diniy, ma’rifiy va ijtimoiy motivlar uyg‘unlashgan. Devon mundarijasining o‘ziga xos jihatlari quyidagi mavzularda namoyon bo‘ladi:

1. *Alloh zikri va oxirat qayg‘usi.* Shoir she’riyatining markazida ilohiy qudratni ulug‘lash, inson hayotining foniyligi va oxirat mas’uliyati g‘oyasi turadi. Alloh zikrida, avvalo, munojot ohanglarini ko‘rishimiz mumkin Faqiriy munojotlarida insonning ojizligi va ilohiy qudratga ehtiyoji asosiy motiv sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir o‘z gunohi va qiyomat tashvishini eslab, Allohdan iltijo qiladi:

Xudovando, O‘zing lutf et, mani qo‘yma xijolatda,
Gunohimni sabuk qilgil, o‘shal ro‘zi Qiyomatda[47].

Shoir munojotlarida diniy qadriyatlarni himoya qilish motivi ham kuchli. Faqiriy devonidagi ilk g‘azal ham aynan Alloh zikri bilan boshlanib, oxirat qayg‘usi bilan yakunlanadi:

[46] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.80.
[47] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.21.

Ilohiy, qudrating birla bo‘lub ikki jahon paydo,
Yana ikki jahon ichra guruhi insu jon paydo[48].

Ushbu matla’da shoir Yaratganning cheksiz qudratini madh etib, ikki jahon – dunyo va oxiratning mavjudligi ilohiy iroda mahsuli ekanini ta’kidlaydi. Baytda kosmogonik tasavvur bilan birga inson va jinning yaratilish hikmati ham badiiy ifoda topgan. Bu fikr Qur’oni karimdagi quyidagi oyat mazmuni bilan uyg‘unlashadi: “Men jin va insonlarni faqat o‘zimga ibodat qilishlari uchungina yaratdim”[49] (Zoriyot, 56). Bu esa shoirning diniy bilimi ham ziyodaligidan dalolat.

2. *Munojot ohanglari.* Faqiriy ko‘plab g‘azal va musaddaslarida Haq taologa iltijo, tavba va ixlos tuyg‘ularini samimiy munojot ohangida ifodalaydi. Devonning muhim qismlaridan biri esa sayyidi mursaliyn – Hazrati Rasulullo sallallohu alayhi vasallam sha’niga bitilgan na’t va munojotlardan iboratdir. “Na’ti Sayyidil mursaliyn” nomli munojot g‘azali bunga misol bo‘la oladi.

Zulfing girihi xalqai arbobi munojot,
Abro‘yi xaming ahli Haqa qiblai hojot[50].

Mumtoz adabiyotda devonni hamd va na’t bilan boshlash qadimiy odob va an’ana sanaladi. Zotan, mumtoz shoirlar ijodiy merosini Yaratganga hamd, Payg‘ambar alayhissalomga salovot va madh bilan bezashni badiiy hamda ma’naviy zarurat deb bilganlar.

3. Mustabid tuzum manzaralari. Shoir ijodida zamonasining siyosiy-ijtimoiy muammolari, tazyiq va zulm manzaralari ham aks etib, bu hol uning hayotiy kechinmalari bilan bog‘liqdir. Faqiriy yashagan tarixiy davr ijtimoiy-siyosiy hayotda murakkab va ziddiyatli jarayonlar kuchaygan mustabid tuzum sharoiti bilan xarakterlanadi. Faqiriy lirikasida mustabid davrning ma’naviy bosimi, ruhiy asorat va insoniy qadriyatlarning yemirilishi markaziy mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir ko‘pincha falak timsoli orqali zamon adolatsizligidan shikoyat qiladi. Bu yerda “falak” obrazining poetik funksiyasi ijtimoiy zulmni metaforik tarzda umumlashtirishdan iborat:

Ey falak, olam aro bee’tibor etding mani,
Bandi g‘am ichra asiru xoru zor etding mani[51].

Mazkur baytda shoirning subyektiv kechinmalari ijtimoiy mazmun bilan uyg‘unlashadi. “Bandi g‘am”, “asiru xoru zor” kabi birikmalar istibdod sharoitida insonning ma’naviy tutqunlik holatini ifodalaydi.

4. Vatanparvarlik tuyg‘ulari. Faqiriy she’riyatida vatanparvarlik mavzusi ham yetakchi o‘rinda turadi. Vatanni madh etish nafaqat milliy iftixor va tarixiy xotira, balki jamiyatni ilm-fan va ma’rifat orqali yuksaltirishga chaqiruvchi markaziy mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir vatanni sevishni shaxsiy fazilat, diniy majburiyat va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Shoir tarixiy shahar ona yurti, Shahrisabzni, ilm-fan va fazilat maskani sifatida madh etish orqali vatanparvarlikni kuchaytiradi:

---

[48] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.37
[49] Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi / tarjimon Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – 628 b.
[50] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.40.
[51] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.67

Bog‘laring jannat misolidur, desam ayb o‘lmagay,
Chunki man ojiz Faqiriyga makondur Shahrisabz[52]

Sen shu yurtda tug‘ilganing uchun Shahrisabzning tikani ham senga gul bo‘lib tuyuladi, deb muhabbat va vatanparvarlikni shaxsiy, ruhiy his bilan uyg‘unlashtiradi. Bu yerda motiv va ramziy obrazlar: “jannat misoli” – Shahrisabzning ilm-fan va ma’naviy yuksakligi, “tikani” – vatanga bog‘lanish va shaxsiy sharafni anglatadi.

5. Ilm-fan va ma’rifat tashviqi. Faqiriy ma’rifatparvar shoir sifatida ilmning inson kamolotidagi o‘rnini yuksak baholab, jaholatga qarshi kurash g‘oyalarini ilgari suradi. Faqiriy ilmu-fan odob, fazilat va ma’naviy yuksalishni birlashtirishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ota rizosi va bilmli bo‘lishi, insonning nurli qalbi ilm va ma’rifat bilan bevosita bog‘liqdir:

O‘glum, bu Faqir otang rizosi shuldur,
Dunyoda hamisha muddaosi shuldur.
Ilm o‘rganu, xat o‘rganu, odob o‘rgan,
Inson bolasin nuri safosi shuldur[53].

Shu baytlar orqali ilm, odob va fazilat insoniy hayotning barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida poetik shaklda tasvirlangan.

Shoir ilm va hunarni insonni komillikka yetaklovchi asosiy omil, axloqiy poklanishning muhim sharti sifatida talqin qiladi.

Har kishi ilm-u hunar bobida sarfi zar qilur,
Haq ani ushbu jahon ahliga sardaftar qilur[54].

Faqiriyning ushbu g‘azali ilm va hunar mavzusidagi falsafiy qarashlarini yuksak badiiy ifoda bilan ochib beradi. G‘azalning bosh g‘oyasi shundaki, ilm va hunar inson qalbini bezatadigan, ruhini boyitadigan, ikki dunyoda obro‘ beradigan eng oliy qadriyatdir.

Bobning *“Faqiriy she’riyatida muxammas va tatabbu’ yaratishdagi individualligi”* deb atalgan 2-faslida Ismoilxon Faqiriy ijodida muxammas va tatabbu’ usulining badiiy-poetik xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Bobda Faqiriy ijodida mumtoz adabiyot an’analari izchil davom ettirilib, turli davr va adabiy maktablarga mansub shoirlar g‘azallariga bog‘langan muxammas va tazminlar muhim o‘rin tutishi tahlil qilinadi. Gulshaniy, Hamidiy, Amir, Muxlis Namangoniy, Fuzuliy, Habibiy, Furqat, Ulfat (Nusrat), Sayyid Ahmad Vasliy, Boqiy kabi ijodkorlar g‘azallariga bitilgan tatabbu’ va muxammaslar Faqiriyning keng adabiy tafakkur hamda mumtoz an’analar bilan uzviy aloqasini ko‘rsatadi[55]. Faqiriy g‘azallarida Navoiy va Fuzuliy an’analari ham ijodiy davom ettirilgan. Jumladan, shoir devonidagi Mullo Orif Gulxaniy, Tufayliy (Yusufxonto‘ra Dehnaviy), Lutfiy, Hiloliy, Hamidiy, Hofiz, Ulfat (Nusrat), Furqat, Boqiy va Sayyid Ahmad Vasliy g‘azallariga bog‘langan muxammas, tazmin va tatabbu’lar adabiy vorislik tamoyilining yorqin namunasidir. Shu bilan birga, Faqiriy

[52] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.76
[53] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.81
[54] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.44
[55] Vohidov Sh. Les particularités paléographiques et codicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Shahrisabz, Uzbékistan) // Manuscripta Orientalia: International Journal for Oriental Manuscript Research. – *2003.* – Vol. 9. – No. 3. – P. 52–56. – URL: https://manuscripta-orientalia.kunstkamera.ru/archive/2003_03_09.

an’anaviy tatabbu’ tamoyillariga amal qilgan holda, o‘ziga xos poetik ovozini ham namoyon etadi. Ayniqsa, Sayid Ahmad Vasliy bilan bog‘liq muxammas va tatabbu’lar ijodiy musobaqa va badiiy muloqot ruhida yaratilgan bo‘lib, shoirning adabiy an’anaga ongli yondashganini ko‘rsatadi. Faqiriy she’riyatida an’ana va yangilik o‘rtasidagi uzviylik ta’minlanib, klassik poetik tafakkur zamonaviy badiiy ifoda bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu hol shoirning adabiy merosini nafaqat davomiylik, balki ijodiy yangilanish nuqtayi nazaridan ham baholash imkonini beradi.

Ey pari, kel bir zamon yoningda mehmoning bo‘lay,
Til ochib vasling uchun savsandek sanoxoning bo‘lay[56].

Tatabbu’larida esa Faqiriy mumtoz poetika qonuniyatlariga tayangan holda salaf ijodkorlar tajribasini ijodiy qayta talqin qiladi. Natijada Faqiriy ijodida muxammas va tatabbu’lar mumtoz adabiyot an’analari davomiyligini ta’minlovchi hamda shoirning individual poetik tafakkurini namoyon etuvchi muhim badiiy shakllar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Faqiriy mumtoz she’riyatdagi payravlik va nazira bitish an’analarini davom ettirar ekan, ularni mazmun va badiiy ifoda jihatidan yangicha ruhda talqin etishga intilgan. Xususan, muxammaslarda g‘azal matniga yangi semantik qatlam qo‘shish, lirik kechinmalarni kengaytirish hamda musiqiy ohangdorlikni kuchaytirish orqali shoirning individual poetik uslubi namoyon bo‘ladi. Faqiriyning muxammas va tatabbu’ yaratishdagi individualligi, avvalo, salaflar asarlariga ijodiy yondashuvi, mavjud g‘azal mazmunini yangi fikriy qatlamlar bilan boyitishi hamda an’anaviy poetik shakl doirasida o‘z badiiy ovozini namoyon eta olganida ko‘rinadi. Muxammas va tatabbu’larda g‘oyaviy fikrning izchil rivoji, lirizm va didaktik ruhning uyg‘unligi, poetik sintaksisning murakkabligi hamda qofiya va radif tizimining kengaytirilgan shaklda qo‘llanishi kuzatiladi. Bobning *“Ijodkorning qofiya va badiiy san’atlardan foydalanish mahorati*”ga bag‘ishlangan 3-faslida Ismoilxon Faqiriy she’riyatida qofiya tizimi va badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati lingvopoetik tahlil asosida yoritiladi. Fasl doirasida Faqiriy she’riyatida tashbeh, istiora, tazod, talmeh, mubolag‘a, irsoli masal kabi badiiy san’atlarning faol qo‘llanishi aniqlanadi. Ushbu tasvir vositalari orqali shoir murakkab falsafiy va axloqiy g‘oyalarni ramziy-majoziy shaklda ifodalab, poetik umumlashma darajasiga ko‘taradi. Bundan tashqari, shoir she’riyatida talmeh, tazmin, irsoli masal, husni ta’lil, tanosub kabi badiiy san’atlarning keng qo‘llanishi obrazlilikni kuchaytirib, poetik tasvirning rang-barangligini yuzaga chiqaradi.

Ulus mandan uzuldi sanga, ey gul, mubtalo ko‘rgach,
Raqiblar saxt dushman bo‘ldi, sanga oshno ko‘rgach[57].

Mazkur bayt mumtoz ishqiy lirika ruhida yaratilgan bo‘lib, unda oshiqning iztiroblari hamda ishq tufayli ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi badiiy umumlashtirish asosida tasvirlangan. Baytning qofiya tizimida misra oxirida takrorlangan “ko‘rgach” birliklari radif vazifasini bajarib, she’rning ichki ritmi va ohangdorligini ta’minlaydi. Radifdan oldin kelgan “mubtalo” va “oshno” so‘zlari

[56] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy – Toshkent: Adolat, 2004. – B.98-99.
[57] Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy – Toshkent: Adolat, 2004. –.42.

esa o‘zaro ohangdosh qofiyani hosil qilib, fonetik uyg‘unlikni kuchaytiradi. Baytda tazod va istiora san’atlari yetakchi o‘rin tutadi: bir tomonda oshiqning ma’shuqaga mubtalo bo‘lishi, ikkinchi tomonda esa raqiblarning dushmanlikka aylanishi qarama-qarshi ruhiy va ijtimoiy holatlarni yuzaga chiqaradi. Istiora orqali ma’shuqa “gul” timsolida berilib, uning go‘zalligi va maftunkorligi ramziy tarzda ifodalanadi; bu timsol mumtoz lirika poetikasida barqaror obraz sifatida qo‘llanadi.

Umuman olganda, ijodkor she’riyatida qofiya va radif uyg‘unligi, tazod, istiora hamda mubolag‘a kabi badiiy vositalarning tizimli qo‘llanishi oshiqning ichki holatini va ishqning ijtimoiy-psixologik ta’sirini estetik-falsafiy darajada ochib beradi. Shoir poetikasida an’anaviy janr va poetik shakllar saqlangan holda mazmuniy yangilanish, individual ruhiy kechinmalar va ma’rifiy g‘oyalar talqini ustuvorlik qiladi. Faqiriy ijodi mumtoz adabiyotning badiiy-estetik tamoyillarini davom ettirgan holda o‘ziga xos obrazlar tizimi, ifoda vositalari va kompozitsion yechimlari bilan adabiy jarayonda muhim o‘rin egallaydi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Ismoilxon Faqiriyning hayoti va ijodiga oid mavjud manbalar ilk bor kompleks va tizimli ravishda o‘rganilib, shoirning adabiy faoliyati muayyan tarixiy-adabiy muhit bilan uzviy bog‘liqlikda shakllangani ilmiy jihatdan asoslandi.

2. Faqiriy o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida hali yetarli darajada maxsus o‘rganilmagan bo‘lsa-da, g‘oyaviy-badiiy salohiyati bilan yuksak mavqega ega ijodkor sifatida e’tirof etiladi. Uning hayoti va ijodi salaflar hamda ustozlar ta’siri, shuningdek, muayyan tarixiy-adabiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. uning adabiy-estetik qarashlari salaflar an’analari hamda davr ma’naviy ehtiyojlari ta’sirida rivojlangani ilmiy jihatdan asoslandi.

3. Tadqiqot davomida Faqiriy devonining kompozitsion tuzilishi, janriy tarkibi va ichki tartibi aniqlanib, unda g‘azal, qit’a, ruboiy, muxammas va boshqa mumtoz janrlarning badiiy talablar asosida mohirlik bilan qo‘llangani asoslandi. Shoirning janriy xilma-xillikdan foydalanish mahorati uning ijodiy salohiyati va mumtoz poetik mahoratga egaligidan dalolat beradi. Shuningdek, boshqa mumtoz janrlarning poetik qonuniyatlarga muvofiq qo‘llangani hamda janrlar tizimining shoir ijodiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omil ekani asoslandi.

4. Faqiriy she’riyatida mavzular ko‘lami keng bo‘lib, unda didaktik, falsafiy, ilohiy ishq, ma’rifat, vatan, xalq taqdiri, zamona muammolari va insoniy fazilatlar uyg‘un holda ifodalangan. Mavzuviy rang-baranglik shoirning badiiy tafakkuri serqirraligi va hayotiy kuzatuvlarining chuqurligini asoslaydi.

5. Shoir poetikasida aruz vaznlaridan foydalanish yuqori mahorat bilan amalga oshirilgan bo‘lib, vazn va mazmun o‘rtasida uyg‘unlik ta’minlangan. Qofiya va radif tizimi, lafziy san’atlar hamda tovush takrorlariga asoslangan uslubiy vositalar Faqiriy she’rlarining musiqiyligi va estetik ta’sirchanligini kuchaytirganligi isbotlandi.

6. Faqiriy ijodida an’ana va o‘ziga xoslik masalasi muvozanatli tarzda hal etilgan. Shoir Navoiy, Jomiy Fuzuliy va boshqa salaflar poetik tajribasiga tayangan

holda o‘z individual uslubini shakllantirgan va mumtoz adabiyot doirasida o‘ziga xos badiiy makon yaratganligi dalillar asosida ko‘rsatib berildi.

7. Faqiriy ijodining mavzuviy va janriy ko‘lami mumtoz adabiyot an’analarining ijodiy o‘zlashtirilishi hamda shoirning poetik imkoniyatlardan individual foydalanishi asosida shakllanganligi aniqlandi. Devon tarkibidagi janrlarning funksional xususiyatlari tahlili Faqiriy poetikasida an’anaviy janr shakllarining mazmuniy jihatdan kengayib, individual ijodiy talqin bilan boyitilganligi ko‘rsatib berildi.

8. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ismoilxon Faqiriy devoni mazmuniy va g‘oyaviy jihatdan serqatlam bo‘lib, unda diniy-tasavvufiy, ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy hamda vatanparvarlik motivlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shoir she’riyatida Alloh zikri, umr foniyligi va oxirat mas’uliyati g‘oyalari munojot ohanglari orqali badiiy talqin etilib, ruhiy poklanish masalalari yetakchi mavzu sifatida yoritiladi.

9. Faqiriy ijodida an’anaviy mavzu va motivlarning davom ettirilishi bilan bir qatorda, ularning individual talqini ham mavjudligi aniqlandi. Diniy-tasavvufiy, ma’rifiy, ijtimoiy va vatanparvarlik motivlarining turli janrlarda qo‘llanishi hamda ularning shoir qarashlari bilan bog‘liq holda talqin etilishi Faqiriy ijodida an’ana va yangilik munosabatining muhim jihatlaridan biri ekanini ko‘rsatdi.

10. Tadqiqot natijalari Ismoilxon Faqiriy she’riyatining g‘oyaviy mazmuni, janriy tarkibi va poetik xususiyatlari o‘zaro bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatdi. Shoir ijodida ishq, ma’rifat, axloqiy komillik, sabr-qanoat, ilohiy muhabbat va insoniy kamolot masalalari yetakchi g‘oyaviy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lib, ular falsafiy-didaktik mazmundagi she’rlar, an’anaviy poetik obrazlar hamda badiiy tasvir vositalari orqali ifodalangani aniqlandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

ЯКУБОВА САФИЯ ХАМДАМОВНА

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ ИСМАИЛХАНА ФАКИРИ

10.00.02 –Узбекская классическая литература

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под регистрационным номером № B2025.1.PhD/Fil5507.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz), а также на Информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Мухитдинова Бадеа Муслихиддиновна** доктор филологических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	**Ходжакулов Сирожиддин Холмахматович** доктор филологических наук (DSc), профессор
	Нуриддинов Шахобиддин Бабаярович доктор филологических наук (DSc), доцент
Ведущая организация:	**Джизакский государственный педагогический университет имени Абдуллы Кадыри**

Защита диссертации состоится «__ ___»____ _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 при Самаркандском государственном университете им. Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, город Самарканд, улица Бустонсарай, 93. Тел.: +998 (66) 239-18-92; факс: +993 (66) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета им. Шарофа Рашидова. (зарегистрирована за номером_____). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: +998 (66) 239- 11-40; факс: (8366) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года
(Протокол реестра рассылки за №_____ от «_____» _____ 2026 года).

У.У. Кобилов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

А.А. Раззаков
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, доцент

М.Р. Бобохонов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В мировом литературоведении всё большее внимание уделяется теоретическому исследованию творчества представителей классической литературы Востока на основе современных научно-методологических подходов. При этом к числу приоритетных направлений относятся изучение развития национального и общечеловеческого художественного мышления, сравнительно-типологический анализ идейно-содержательных пластов классических текстов, а также определение их роли в межкультурных связях. Богатое литературное наследие, созданное в литературной среде Центральной Азии, далеко не в полной мере введено в научный оборот. В частности, наследие отдельных мастеров художественного слова, творивших в русле традиционной поэтики, до настоящего времени рассматривается преимущественно на уровне общих описательных характеристик, а их литературно-эстетические взгляды и текстологические особенности лирических диванов не получили целостной научной оценки. Введение в научный оборот литературного наследия поэтов, творчество которых не становилось предметом специального исследования, на основе первоисточников является одной из важных задач современного литературоведения.

В мировом литературоведении возрастает потребность в интерпретации классического литературного наследия с учётом достижений современных гуманитарных наук, а также в оценке художественного наследия отдельных авторов с историко-литературных, источниковедческих и текстологических позиций. Последовательно продолжаются исследования, направленные на введение в научный оборот наследия поэтов-просветителей второй половины XIX – начала XX века на основе рукописных и печатных источников, комплексное изучение жанрового многообразия их творчества, художественного мышления и идейных воззрений. С этой точки зрения особую актуальность приобретает системное исследование идейно-художественных особенностей литературного наследия Исмоилхона Факири, жившего и творившего в указанный период. В творчестве поэта нравственно-философские воззрения, суфийские мотивы, просветительские идеи и социально-эстетические принципы проявляются в неразрывной связи с традициями классической литературы.

В нашей стране в условиях глобализации и культурной интеграции в последние годы последовательно осуществляются научные исследования, направленные на глубокое, системное и концептуально обоснованное изучение национального литературного наследия, введение в научный оборот творческого наследия представителей классической литературы, исследование его идейно-художественных и поэтических особенностей. Как отмечается, «То, что мы поставили перед собой цель перехода от национального возрождения к национальному подъёму, определив её как

важнейшую и приоритетную задачу, требует и от литературоведов, как и от представителей других сфер, деятельности на основе чётко поставленных целей»[58]. В узбекском литературоведении одной из важных задач остаётся изучение жанровых, тематических и художественно-эстетических особенностей литературного наследия поэтов, творчество которых до настоящего времени не становилось предметом специального исследования. В частности, литературное наследие Исмоилхона Факири, его диван, рукописные и печатные источники не подвергались комплексному исследованию; не получили должного научного обоснования идейно-художественные особенности его творчества, поэтическая индивидуальность и место в развитии узбекской литературы. В связи с этим актуальной научной задачей является системное изучение творчества Факири на основе историко-литературного и теоретико-поэтического подходов, исследование произведений, представленных в его диване и баязах, с точки зрения жанровых, тематических, идейных и поэтических особенностей, а также научное обоснование места поэта в истории узбекской литературы.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года № УП-4797 «Об организации Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030», в постановлениях Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2017 года № ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников», от 13 сентября 2017 года № ПП-3271 «О комплексной программе мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения и пропаганде чтения», в распоряжении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года № 124-ф о проведении международной конференции на тему «Актуальные вопросы изучения и популяризации узбекской классической и современной литературы на международном уровне», в Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 28 декабря 2020 года, в постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2025 года № ПП-308 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию государственного языка», в Указе Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2026 года № УП-98 «О совершенствовании системы подготовки и аттестации научных кадров нового поколения», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

[58] Мирзиёев Ш. М. Участникам международной конференции «Актуальные вопросы изучения и популяризации за рубежом узбекской классической и современной литературы». – 7 августа 2018 г.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировом литературоведении широко исследуются вопросы роли классической литературы XIX-XX веков в духовной жизни общества, а также художественного воплощения идей просветительства, нравственного совершенствования и гуманизма[59]. Данные проблемы рассматриваются многими исследователями на материале литератур Востока и Запада, при этом взаимосвязь духовно-просветительского содержания художественного текста и его социально-идейной направленности обоснована рядом значимых научных выводов[60]. Изучение жизни, деятельности и литературной среды писателей-просветителей конца XIX – начала XX века сформировалось в узбекском литературоведении как важное научное направление. В частности, существенный вклад в разработку данной проблематики внесли исследования Н. А. Джабборова[61], Н. Б. Адизовой[62], К. А. Джумаева[63], П. Равшанова[64]. Особое значение имеют также труды Р. Мусамухаммедовой, Ш. Юсупова, И. Ганиева, Б. Касымова, Х. Болтабаева, Д. Куронова, Н. Каримова,

[59] Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – New York: Harcourt Brace, 1956. – 34–36 p.; Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Blackwell, 2008. – 41 p.; Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975. – 71 p.; Meisami J.S. Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. – London: Routledge, 2003. – 52 p.; Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 98 p.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – 112 с.; Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – 72 p.; Bloom H. The Anxiety of Influence: A Theory of Poetry. – New York: Oxford University Press, 1973. – 55 p.; Hodgson M.G.S. The Venture of Islam. Vol. 2: The Expansion of Islam in the Middle Periods. – Chicago: University of Chicago Press, 1974. – 218 p.; Lewis B. The Middle East and the West. – Bloomington: Indiana University Press, 1964. – 64 p.; Chittick W.C. The Sufi Path of Love: The Spiritual Teachings of Rumi. – Albany: State University of New York Press, 1983. – 86 p.; Lewisohn L. The Heritage of Sufism. – Oxford: Oneworld Publications, 1999. – 94 p.; Knysh A. Islamic Mysticism: A Short History. – Leiden: Brill, 2000. – 103 p.; Grabar O. The Formation of Islamic Art. – New Haven: Yale University Press, 1987. – 77 p.; Arberry A.J. Classical Persian Literature. – London: Allen & Unwin, 1958. – 91 p.

[60]Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – С.112; Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. – Л.: Наука, 1976. – С.89; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С.63; Брагинский И.С. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1977. – С.143; Конрад Н.И. Запад и Восток. – М.: Наука, 1972. – С.214; Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – New York: Harcourt Brace, 1956. – p.34; Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Blackwell, 2008. – p.41; Meisami J.S. Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. – London: Routledge, 2003. – p.52; Насруллоев М. Таърихи адабиёти форсу тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1987. – С.118; Мирзоев А. Таърихи адабиёти форсӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – С.92.

[61] Jabborov N.A Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi: Filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2004. – 298 b.

[62] Adizova N.B. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Buxoro adabiy muhitida poetik janrlar taraqqiyoti va mahorat masalalari: Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Buxoro, 2018. – 58 b.

[63] Jumayev Q.A. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qashqadaryo adabiy muhiti (manbashunoslik va poetik tahlil): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 26 b.

[64] Ravshanov P. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshi Qashqadaryo vohasi adabiy manbalari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 43 b.

Г. Махмудова, У. Долимова, Ш. Ризаева, Н. Джабборова, У. Султонова, Н. Афоковой, Х. Азимовой, У. Хамдамова, М. Таджибаевой, С. Ходжакулова, Б. Мухитдиновой[65]. Однако в указанных исследованиях жизнь и творчество Исмоилхона Факири, его поэтическое наследие и взаимосвязи с литературной средой не получили достаточно полного монографического освещения. Отдельные сведения о творчестве поэта начиная с 2005 года приводятся в энциклопедических изданиях и электронных источниках, в частности на страницах Википедии[66]. Ещё одним важным историческим источником, содержащим сведения о происхождении Факири, является произведение «Рузнома» известного просветителя Садри Зиё (1867-1938), занимавшего должность последнего кази-каляна Бухарского эмирата[67]. Первые историко-биографические сведения о жизни Исмоилхона Факири, становлении его творческой личности и литературной деятельности представлены в разрозненных исследованиях, а также содержатся в биографических сборниках (тазкира) и памятниках мусульманской агиографической литературы (манакиб), посвящённых жизнеописаниям суфийских шейхов и духовных наставников. В тазкире Носира Мухаммада «Учёные Насафа и Кеша» («Nasaf va Kesh allomalari») содержатся краткие, но важные сведения о биографии поэта и его произведениях[68]. Данная тазкира

[65] Мусамухамедова П. Р. Жизнь и творчество Факири: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1974. – 25.Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 20.; Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005. – 282 б.; Қосимов Б. Маслакдошлар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 155 б.; Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Фил.фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996; Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 169 б.; Қуронов Д. Чўлпон поэтикаси (насрий асарлари асосида): Фил.фан. номз... дисс. авт. – Тошкент, 1998. – 50 б.; Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999; Маҳмудов Ғ. Жадид адабиётида миллий истиқлол мавзуси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 544 б.; Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: Университет. 2006. – 544 б.; Ризаев Ш. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиш манбалари: Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995; Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси: Фил.фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Султонов И. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари: Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995; Афоқова Н. Жадид шеърияти поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.; Афоқова Н. Жадид ғазалиёти. – Тошкент: Фан, 2005. – 34 б.; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари: Фил. фан. д-ри... дисс – Тошкент, 2005; XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 536 б.; Азимова Ҳ. Абдулла Авлоний драматургияси (ғоявий маҳорат): Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999. – 137 б.; Ҳамдамов У. XX аср шеърияти бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий психологик хусусиятлари: Фил. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 70 б.; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Фил. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 70 б.; Xo‘jaqulov S. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari tojik adabiyotida lirik janrlarning tadrijiy takomil tamoyillari (an’ana va novatorlik): Fil.fan. d-ri… diss. avtoref – Samarqand, 2022. – 75 b.; Muxitdinova B. XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida adabiy zullisonaylik an’anasi (Saidahmad Vasliy Samarqandiy asarlari misolida): Fil.fan. d-ri… diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – 85 b.

[66] Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zME, 2005.- B. 213.Wikipedia (o‘zbekcha) sahifasi:Izoh: Ismoilxon Faqiriy hayoti vaijodi haqida umumiy tavsif beradi.

[67] Шарифжон махтум Садри Зиё. Рўзнома. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi, nomer: 2277-1-139-A, 141-A varaqlar. Buxoro tarixchilarining asarlari haqida: Sadri Ziyo tomonidan yozilgan “Ro‘znoma” asari Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manba bo‘lib, u tarixiy voqealar, boshqaruv tartibi va ijtimoiy munosabatlarni yoritadi. Izoh:Ushbu asarda Faqiriyning nasl nasabi va bobosi – Inoyatulloxxo‘janing g‘azallar bitgani va ular bilan bo‘lgan do‘stona-ma’rifiy aloqalar xolis tarzda qayd etilgan.

[68] Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,2001. – B.49.

была создана к 2700-летию города Карши[69]. Наряду с историко-биографическими данными о поэте в неё включены отдельные газели Факири, что также свидетельствует об историко-литературной значимости его творчества[70]. Особую роль в изучении жизни и творчества Факири играют отдельные исследования источниковедческого характера. В этом отношении заслуживают внимания научные изыскания Ш. Вахидова и А. Эркинова, посвящённые изучению дивана Факири, рукописных источников и материалов, связанных с научно-литературной средой Шахрисабза[71]. Исследования Ш. Вахидова раскрывают научные аспекты изучения литературного наследия Факири на основе рукописных материалов[72]. Наряду с перечисленными научными исследованиями существуют источники, в которых Факири представлен как поэт-просветитель и суфийский шейх, достигший высокой степени духовного совершенства[73]. В них раскрывается облик Факири как духовно совершенного шейха, представителя классической поэзии и проповедника нравственно-просветительских идей[74]. Важное значение для изучения жизни и творчества Факири имеют также материалы, собранные историком, внуком поэта Масъудхоном Исмоилий[75]. По его инициативе в 2006 году был создан дом-музей Факири-Шахрисабзи, ставший центром сосредоточения и сохранения материальных и духовных источников, связанных с жизнью и творчеством поэта[76]. В библиотеке музея хранятся ряд рукописных и литографированных источников, относящихся к творчеству Факири[77], а также дополнительные материалы, представляющие интерес для исследования его литературного наследия[78]. Существенное значение для изучения личности и творческой деятельности Факири имеет также статья Масъудхона Исмоилий «О месте творческой деятельности Факири и Наджоти в научно-литературной среде Шахрисабза» («Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida»), в которой отражены результаты его научных изысканий[79]. В числе важных источников изучения творчества Факири необходимо особо отметить

[69] Karimov I.“Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlash to‘g‘risida” gi qarori. 2004-yil 26-mart // Tabrik nutqi. Xalq so‘zi nashri– 2004-yil 27-mart.

[70] Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari: Tazkira. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,2001. – B.51.

[71] Vohidov Sh., Erkinov A. Shahrisabzlik xattot va shoirlar.Ming yillar merosi. Shahrisabz – 2700 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-ma’rifiy to‘plam. – Toshkent: Sharq, 2002. – 126 b.

[72] Vokhidov Sh. “Les particularités paléographiques et codicologiques des fonds particuliers de Ravnaki et Fakiri (Shakhrisabz, Uzbekistan)”, Manuscripta Orientalia, Vol. 9, No. 3, September 2003, pp. 52–56.

[73] Kenjabek M. Mumtoz shoir va komil shayx Faqiriy–Shahrisabziy // Sino. – 2004. № 15. – B. 44–51.

[74] Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy – olim, shoir va shayx // Moziydan sado. – 2004. № 4. – B. 28–31.

[75] Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o‘rni. – Toshkent: Fan, 2002.143 b.

[76]Ismoiliy M. Faqiriy–Shahrisabziyga doir to‘plangan materiallar. Shahrisabz-Sariosiyo uy-muzeyi. Fond № 1, 1-ro‘yxat, 12-yig‘ma jild, 23-varaq.

